

**ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERGNING “O’T
YOQDIM.GULXANIM,YONAVER LOV-LOV...” SHE’RIDA TABIAT VA
ICHKI KECHINMALAR UYG’UNLIGI**

Nurmaxmatova Firusa Rasulovna

O’zbekiston Davlat Jahon tillari

Universiteti Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

feruzanurmaxmatova2005@gmail.com

Annotatsiya: Aleksandr Arkadevich Faynberg o’zbek she’riyatida o’ziga xos falsafiy tafakkuri, teran falsafiy fikr-mulohazalari va samimiy lirizm bilan e’tirof etilgan, dunyo minglab va hatto millionlab kitobxonlari qalbini zabt etgan ardoqli shoirdir. Shoir inson ruhiyati, hayotning o’tkinchiligi, tabiat manzaralari va ichki kechinmalarni birlashtirib go’zal she’riy namunalar yaratgan. Soddagina tabiat tasvirlari orqali inson qalbining eng nozik kechinmalarini ko’rsatish Faynberg she’riyatiga xos bo’lgan eng ajoyib jihatlardan biri hisoblanadi. Shoir lirikasida tabiat manzaralari ko’pincha insonning hayot haqidagi mushohadalari bilan uzviy bog’liqlikka ega. O’rmon, yomg’ir, shamol, daraxtlar, olov kabi obrazlari bilan hayot mohiyati, vaqt o’tishi, ruhiy izlanishlar ifodalanadi. Mazkur maqola Aleksandr arkadevich Faynbergning xuddi shunday xususiyatlarni o’zida mujassamlashtirgan “O’t yoqdim. Gulxanim, yonaver lov-lov...” misralari bilan boshlanuvchi she’riga bag’ishlanadi.

Kalit so’zlar: falsafiy lirika, tabiat tasviri, inson ruhiyati, tayga manzarasi, hayot falsafasi, poetik obraz, lirik kechinma, badiiy tasvir, vaqt va umr tushunchasi.

Abstract: Alexander Arkadevich Feinberg is a respected poet in Uzbek poetry, recognized for his unique philosophical thinking, deep philosophical reflections and sincere lyricism, who has won the hearts of thousands and even millions of readers around the world. The poet created beautiful poetic examples by combining the human psyche,

the transience of life, natural landscapes and inner experiences. Showing the most delicate experiences of the human soul through simple images of nature is one of the most remarkable aspects of Feinberg's poetry. In the poet's lyrics, natural landscapes are often inextricably linked with human observations about life. The essence of life, the passage of time, and spiritual searches are expressed with images such as forest, rain, wind, trees, and fire. This article is devoted to the work of Alexander Arkadevich Feinberg, which embodies similar features in his poem "Fire" I liked it. My fire, let it burn, my love..." is dedicated to the poem that begins with the lines:

Keywords: philosophical lyrics, description of nature, human psyche, taiga landscape, philosophy of life, poetic image, lyrical experience, artistic image, concept of time and life.

Аннотация: Александр Аркаевич Файнберг — уважаемый поэт узбекской поэзии, известный своим уникальным философским мышлением, глубокими философскими размышлениями и искренним лиризмом, завоевавший сердца тысяч и даже миллионов читателей по всему миру. Поэт создал прекрасные поэтические образцы, сочетая человеческую психику, быстротечность жизни, природные пейзажи и внутренние переживания. Одним из наиболее примечательных аспектов поэзии Файнберга является изображение тончайших переживаний человеческой души через простые образы природы. В лирике поэта природные пейзажи часто неразрывно связаны с человеческими наблюдениями за жизнью. Сущность жизни, течение времени и духовные поиски выражены такими образами, как лес, дождь, ветер, деревья и огонь. Данная статья посвящена творчеству Александра Аркаевича Файнберга, в котором схожие черты воплощены в его стихотворении «Огонь». Мне понравилось. «Мой огонь, пусть он горит, моя любовь...» — так называется стихотворение, начинающееся со строк:

Ключевые слова: философская лирика, описание природы, человеческая психика, пейзаж тайги, философия жизни, поэтический образ, лирический опыт, художественный образ, концепция времени и жизни.

Aleksandr Arkadevich Faynbergning “O‘t qo‘ydim gulxanim.Yonaver lov-lov...” misralari bilan boshlanuvchi she‘ri uning tabiatga bo‘lgan munosabati va inson ruhiyatini tasvirlashdagi mahoratini ko‘rsatadi.She‘rda tabiat va inson o‘rtasida ruhiy yaqinlik, hayot haqidagi falsafiy muhohada hamda vaqt o‘tishi vaqt haqidagi o‘ylar ifodalangan.Shu jihatdan ushbu she‘r Faynberg lirikasining muhim namunalaridan biri hisoblanadi.Shoir asarda tayga manzarasi, olov, shamol va yomg‘ir obrazlari vositasida inson qalbining sokin, biroq chuqur kechinmalari tasvirlangan.

O‘t yoqdim. Gulxanim, yonaver lov-lov,

Olov, qadr donim, shamolda o‘ynash.

Men nima qildim-ov, ne yo‘qotdim-ov,

Jonim-ov, barini shart emas sanash.

Avgustning egnida yam-yashil libos,

Yog‘och, yermoy xidi. Archazor – sarvzor.

Ayni shu yoshimda na kas, na nokas

Hech qachon dilimga berolmas ozor.

Olmaxon g‘uddani qoqar qattiqroq.

Nigohimni sezdi, alanglar zumda.

Ninabarg tashladim. Biroz achchiqroq,

Ta‘mi, xushbo‘y hidi qoldi og‘zimda.

Kunduz. Tayga shodmon etdi dilimni,

Qarag‘aylar yomg‘ir ichra cho‘mildi.

Men olovga tutdim ikki qo‘limni,

Butalar tomchiga duvva ko'mildi.

Tartanak inini tebratadi yel.

Sovuq uff tortadi Tayga o'rmoni.

Bas qil, kam-ku, bas qil! Yana necha yil

Umr ko'rishimni kerakmas soni.

She'rda avval ta'kidlangani kabi tabiat tasviri va insonning ichki kechinmalari o'zaro uyg'un holda ifodalab berilgan. Shoir tayga o'rmoni, shamol, yomg'ir, qarag'aylar va olov singari tabiat manzaralaridan olingan detallar orqali lirik qahramon qalbida kechayotgan his-tuyg'ularni, uning ruhiy olamine ochib beradi. Tabiat manzaralari shunchaki asosiy mazmun ifodalangan sahnadagi bezak emas, inson hislarini sodda tilda tushuntiruvchi qurulma hisoblanadi.

Masalan, she'r boshida tasvirlangan olov lirik qahramon uchun shunchaki gulxanni ifodalabgina qolmay, unga yo'ldosh va ruhiy tasalli manbai sifatida namoyon bo'ladi. Shamolda o'ynayotgan olov ta'rifi inson yuragida mavjud iliqlik, hayotga, yashashga bo'lgan mehr va ichki sokinlik tasviridir. Shuningdek, asardagi tayga o'rmonining keng va sokin manzarasi shoir ruhiy holatiga hamohanglashib, ososiyishtalik va mushohad kayfiyatini baxsh etadi.

She'r davomida ko'zga tashlanadigan kichik-kichik detallar-olmaxonning harakati, ninabargning hidi, yomg'ir tomchilari, shamolda tebranib turgan butalar-badiiy tasvisga jonlilik va ta'sirchanlik ruhini qo'shadi. Bu detallar tabiatning tirik va harakatchan tasvirini yuzaga keltiradi. Aynan mana shu nuqtaga kelib lirik qahramon ongini hayot xususidagi chuqur o'yga toldiradigan, o'tgan umr va inson hayotining mohiyati to'g'risidagi o'ylar chulg'ab oladi.

She'r yakunida bo'lsa inson umrining qancha davom etishi emas, uning qay darajada muhim ekanligi muhim degan g'oya ilgari suriladi. Lirik qahramon uchun hilar bilan hisoblash qiziq ema. U tabiat qo'ynida, osoyishta yashashni xohlaydi, xolos.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Aleksandr Arkadevich Faynbergning ushbu she'ri tabiat tasvirlari vositasida inson ruhiyatini yoritib bera olgan teran falsafiy lirik parchadir. She'rni o'qigan har bir o'quvchi shoir tabiat va inson ruhiyatidagi bog'liqlikni chuqur his etgan holda bu asarni bitganini angelaydi. Shu boisdan ham mazkur she'r Faynberg she'riyat bo'stonini gultojlaridan biri va iste'dodining oynasi sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aleksandr Faynberg. Tanlangan asarlar. Toshkent: Adabiyot nashriyoti, 2005.
2. Qodirov, N. XX asr o'zbek she'riyati tarixi. Toshkent: Fan, 2010.
3. Toshpulatov, A. O'zbek lirikasida tabiat va falsafiy mushohada. Toshkent: Adabiyot va san'at, 2015.
4. Mamatqulov, S. O'zbek she'riyati poetikasi va obrazlilik. Toshkent: Fan, 2012.
5. Xudoyberdiyev, R. Lirik kechinmalar va inson ruhiyati o'zbek she'riyatida. Toshkent: Sharq, 2018.
6. Abdullayev, D. Falsafiy lirika va tabiat ramziyligi. Toshkent: Adabiyot nashriyoti, 2016.
7. Karimov, F. She'riyat va poetik tafakkur. Toshkent: O'zbekiston, 2014.